

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/30.12.2019. Tar.78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

---

**JO'RAYEVA DILFUZA JANGIROVNA**

**O'ZBEKISTONDA ARXIV ISHLARI VA UNING TARIXI  
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**07.00.01 – O'zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz — 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Jo‘rayeva Dilfuza Jangirovna**

O‘zbekistonda arxiv ishlari va uning tarixi (Surxondaryo viloyati misolida)..... 3

**Джураева Дилфузаджангировна**

История архивного дела Узбекистана (на примере Сурхандаринской области)..... 23

**Jurayeva Dilfuza Jangirovna**

History of archival affairs in Uzbekistan (using the Surkhandarya region as an example)..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/30.12.2019. Tar.78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

---

**JO‘RAYEVA DILFUZA JANGIROVNA**

**O‘ZBEKISTONDA ARXIV ISHLARI VA UNING TARIXI  
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz — 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.1.PhD/Tar1002 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch til (o'zbek, rus, ingliz(rezyume))da Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tersu.uz](http://www.tersu.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lif tarmog'i portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rahimov Bahodir Saidmusaeievich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xoliqova Rahbar Ergashevna**  
tarix fanlari doktori, professor

**Xushboqov Panji Shaymanovich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «7 » yano soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino, 4-qavat, majlislar zali). Tel.: +998762231311; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «27 » dehobz kuni tarqatildi.  
(2026-yil «7 » yano dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



**T.R. Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

**O.A. Xamidov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**X.E. Xolmo'minov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sharoitida intellektual va texnologik sohalarda integratsiya jarayonlari tobora kuchaymoqda. Bu esa, o‘z navbatida, turli mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Tabiiyki, mazkur jarayonda ilmiy-tadqiqot institutlari va jamoat hayotining turli sohalarini o‘rganuvchi olimlar, shuningdek, keng jamoatchilik tomonidan davlat arxivlariga bo‘lgan qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Bu holat tarixiy jarayonlarni chuqurroq o‘rganish zaruriyati hamda kelajak uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun o‘tmishni obyektiv tahlil qilish istagi bilan bog‘liqdir.

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida arxiv ishi sohasini yanada mukammallashtirish, arxiv ishini sifatli yuritish, hujjat va turli ma’lumotlardan foydalanishni ta’minlaydigan yangicha ish shakllarini, yo‘nalishlarini, demak, zamonaviy turlarini yaratish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu sohaga ixtisoslashtirilgan xalqaro ilmiy muassasalar tomonidan davlat arxiv ishlarini yanada yaxshilashga intilish, davlat arxivi xizmatini tashkil etish jarayonlarini kengroq o‘rganish, bu borada to‘plangan tajriba hamda yutuqlarni ommalashtirishga bo‘lgan intilishlari mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan samarali islohotlar tufayli Respublikada arxiv ishlarini yanada takomillashtirish, xizmat turlarini erkinlashtirish, mavjud muammolarni bartaraf etish, xavfsizlik tizimlarining yangi turlarini yaratish borasida muhim innovatsion o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu borada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy xizmat uchun xodimlarni jalb etishga alohida e’tibor qaratildi. Davlat arxivlari fondlarida saqlanayotgan nodir hujjatlar va qo‘lyozmalardan milliy tariximizni o‘rganishda kengroq foydalanish, arxiv tizimi ishini yanada taraqqiy ettirish borasidagi innovatsion loyihalarni qo‘llashga intilish mavzuning zaruriyatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5834-son va 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2019-yil 20-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarkiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4463-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-aprelda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 101-son qarori va shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darjasи.** Mavzuga aloqador adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Sovet davrida yaratilgan asarlar

2. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar.

3. Chet el olimlarining ishlari.

**Birinchi** guruvgaga kiruvchi asarlar Sovet davrida yaratilgan bo'lib, ularga M.Izakson<sup>1</sup>, P.P.Ivanov<sup>2</sup>, I.A.Alimov<sup>3</sup>, A.A.Mirzaboyev<sup>4</sup>, L.M.Landa<sup>5</sup>, A.A.Umaraliyev<sup>6</sup>, A.I.Azarov, V.I.Vyalikov, N.V.Brjostovskaya<sup>7</sup>, F.M.Shamayeva<sup>8</sup> va boshqa tadqiqotchilarining ishlari kiradi. Bu asarlarning ahamiyatli tomoni shundaki, ularda Markaziy fond hujjatlarining tarkibi va turlari, Xiva xonligida arxiv ishlari, afg'on-rus munosabatlari va kinofotohujjatlarning tarixni o'rganishdagi roli yoritilgan.

**Ikkinci** guruvgaga kiruvchi asarlarga mustaqillik yillarda arxivlar tarixini o'rganishda bag'ishlangan izlanishlar kiradi. Ulardan G.S.Tileukulov<sup>9</sup>, I.A.Alimov<sup>10</sup>, V.G.Iofe<sup>11</sup>, M.S.Isakova<sup>12</sup> va boshqa tadqiqotchilarining asarlarida<sup>13</sup> O'zbekistonda arxiv ishi tarixi o'rganiladi. Ularning tadqiqotlarida ushbu masalalar tahliliga yangicha yondashuv asosida baho berilgan.

Arxiv ishlarini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy tahlil etishda shu soha bo'yicha yoqlangan dissertatsiyalar alohida ahamiyatga ega<sup>14</sup>. Bu tadqiqotlar tarixiylik, xolislik,

<sup>1</sup> Изаксон М. Национальные фонды Центрального архива УзССР в Ташкенте. // Библиография Востока. – Ленинград, 1932. – №1. – С. 55-72.

<sup>2</sup> Иванов П.П. Архив Хивинских ханов. Записки института востоковедения Академия наук СССР. VII том. –М., 1939. – С. 5-26.

<sup>3</sup> Алимов И.А. О видах публикаций исторических источников в архивных учреждениях Узбекской ССР // Виды и формы публикации исторических источников. – Москва, 1960.

<sup>4</sup> Алимов И.А., Мирзабаев А.А. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 гг.). – Т.: Узгипрозем, 1970.

<sup>5</sup>Ланда Л.М. Центральный Государственный архив Узбекской ССР. Путеводитель по отделу фондов октябрьской революции и социалистического строительства. — Ташкент, 1960.

<sup>6</sup> Умаралиев А.А. Материалы Центрального Государственного архива Узбекской ССР (ЦГА УзССР) как источник по истории Афганистана и русско-афганских отношений (конец XIX – начало XX в.в.). Дис... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966.

<sup>7</sup> Азаров А.И., Вяликов В.И., Бржостовская Н.В. Государственные архивы и архивное дело в союзных Республиках. Москва, 1971.

<sup>8</sup> Шамаева Ф.М. Кинофотодокументы как источники истории КПСС (на материалах Узбекистана 1917-1937 гг.). Дис... канд. ист. наук. – Ташкент: ТашГУ, 1975.

<sup>9</sup> Tileukulov G.S. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980 гг.): опыт и проблемы. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук – Ташкент: ТашГУ, 1995.

<sup>10</sup> Алимов И.А. Архивоведение. – Андижан, 2005. С – 75.

<sup>11</sup> Иофе В.Г. Архивоведческие исследования в Узбекистане в постсоветский период. // Отечественные архивы. Москва, 2007. №6; O'sha muallif. Архивы в Туркестанском kraе (вторая половина XIX – начало XX вв.) // Отечественные архивы. – Москва, 2009. №6; O'sha muallif. Некоторые вопросы истории архивов ханство Средней Азии (XIX – начало XX вв.) // “Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари” илмий мақолалар тўплами. 2-сон – Ташкент, 2011; O'sha muallif. Иофе В.Г. О кинофотофонодокументах в архивах Узбекистана // История и архивы. 2025;7(3):221-233.

<sup>12</sup> Исакова М. С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Т.: Университет, 2012; O'sha muallif. Из истории комплектования и научного описания архивного фонда «Канцелярия хана Хивинского» // Sharqshunoslik, 2015. – № 2-3. – В. 162-170.

<sup>13</sup> Алимов И.А. Архивоведение. – Андижан, 2006; Abduraimova N.A. Isakova M.C. Suleymanova Z.V. Davlat muassasalari tarixi. –Toshkent: SHARQ, 2007; Исакова М.С., Закирова Д.Т., Абдурахимова Ш.А. Ўзбекистон архив тизими-100 ёшда. –Ташкент: Наврӯз, 2019; Юсупов У.М., Алиев А.О., Маҳкамов А.В. Ўзбекистон кинофотофондо хужжатлари миллий архиви. –Ташкент: Ўзбекистон, 2023; Yusupov U., Aliyev A. O'zbekiston arxivlari. – Toshkent: Tasvir, 2021.

<sup>14</sup>Исакова М.С. XIX аср охири – XXI аср бошларида Ўзбекистонда архив ишининг шаклланиши ва ривожланиши. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Ташкент, 2017; Чориев Ш.Ш. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви жамғармалари – Туркистон АССРдаги иқтисодий жараёнларни ёритувчи манба сифатида. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Ташкент, 2018; O'sha muallif. O'zbekiston milliy arxiv hujjatlarida O'zbekiston SSR ijtimoiy-iqtisodiy tarixi (1924–1941-yillar). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2024; Дармонова А.М. Тошкент шаҳар Марказий давлат архиви; тарихи, жамғармалар таснифи ва туркум манбалар таҳлили. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Ташкент, 2020; Murodova D.Sh. Buxoro viloyati davlat arxivlari tarixi va uning ta'lim

ketma-ketlik, izchillik bilan yoritilgan bo‘lib, muammoni ohib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxivlar faoliyati bilan bog‘liq masalalar Respublika va xalqaro anjumanlarda ham olimlar e’tiborida bo‘lmoqda<sup>15</sup>. Bunday anjumanlarda Respublikadagi mavjud arxivlarning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o‘rni, arxiv sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari, arxivlarda moddiy-texnik ta’minot va kadrlar tayyorlash kabi masalalar muhokama qilingan.

**Uchinchi** guruhga chet ellik tadqiqotchilarining ishlari kiradi. Jumladan, P.K.Grimsted<sup>16</sup>, K.Evans<sup>17</sup>, S.Gorshenina<sup>18</sup>, A.Xalid<sup>19</sup>, P.Sartori<sup>20</sup>, Y.I.Pivovar, A.V.Gushin, A.S.Levchenkov<sup>21</sup> va boshqa olimlarning ishlarida mustamlakalarda imperiya arxivlari tashkil etilishining mohiyati, Sovet davlatining arxiv ishini markazlashtirishdagi siyosati va uning oqibatlari, mustaqil O‘zbekistonda arxiv hujjatlaridan foydalanish masalalari, shuningdek, O‘rta Osiyo tarixini tadqiq etishda arxiv materiallarini aniqlash, ularning manbashunoslik tahlili kabi masalalar ohib berilgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar arxivlar tarixining ayrim masalalariga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ularda Surxondaryo arxivlari tarixi sust o‘rganilgan. Bu esa, mazkur mavzuni alohida ilmiy tadqiqot ishi sifatida tanlash lozimligidan dalolat beradi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiytadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi:** Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti ilmiytadqiqot ishlari rejasining ATD-1 “O‘zbekistonning janubiy hududlarida moddiy va ma’naviy madaniyat” mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Surxondaryo viloyatida arxivlarning shakllanishi va rivojlanish tarixini ohib berishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari.**

- Surxondaryo okrugida arxiv tizimining shakllanish tarixini yoritish;
- 1940-yillarda davlat arxivlari ishining ahvoli va natijalarini ohib berish;
- 1950-1960 yillarda Surxondaryo oblastida arxiv idoralari faoliyatini takomillashtirish borasida olib borilgan ishlar va uning natijalarini tahlil etish;

---

muassasalari faoliyatiga oid fondlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Buxoro, 2023; Yuldashev Y.X. Xorazmda arxiv ishi tarixi (1925 – 2020-yy). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Urganch, 2024.

<sup>15</sup>Историческая наука и архивное дело: проблемы интеграции //Сборник материалов Республиканского научного семинара «История узбекского народа и его государственности имени академика Яхё Гулямова». Ташкент: Фан, 2010; Ўзбекистонда архив соҳаси ривожланиши истиқболлари ва илмий-амалий тадқиқотлар // Республика илмий-амалий анжуман мақолалари тўплами. –Тошкент, 2020.

<sup>16</sup> Grimsted P.K. Regional Archival Development in the USSR: Soviet Standards and National Documentary Legacies // American Archivist, January 1973. –P. 43-66.

<sup>17</sup> Evans C. Research condition in Uzbekistan: Archival Access and Conditions in Samarcand // Central Eurasian Studies Review, 2003. Vol.2, №3 –P. 16-17.

<sup>18</sup>Горшенина С.М. Крупнейшие проекты колониальных архивов России: утопичность тотальной Туркестанники генерал — губернатора Константина Петровича фон Кауфмана // Ab Imperio: исследования по новой имперской истории и национализму в постсоветском пространстве. – Казань, 2007. №3. –С. 291 — 354.

<sup>19</sup> Khalid A. Recent work in archives in Uzbekistan and Russia. // Central Eurasian Studies Review, 2002. Vol. 1, No.1. P– 18-19.

<sup>20</sup> Sartori P. Seeing Like a Khanate: On Archives, Cultures of Documentation, and 19th Century Khorezm // Journal of Persianate Studies 9/2 (2016). –P. 228-257.

<sup>21</sup> Пивовар Е.И., Гущин А.В., Левченков А.С. Архивное наследие как инструментарий историко-просветительской деятельности в современном Узбекистане: основные тенденции 2010-2018 гг. // Вестник архивиста. – 2018. — № 4. – С. 1188-1205.

- XX asrning 70-80 yillarida Surxondaryo oblastida arxiv ishlaringin ahvolini o‘rganish;

- Surxondaryo viloyat arxiv ishlaringin yangi davrdagi faoliyatini yoritish;

- Arxiv ishlari dagi o‘zgarishlar jarayoni va uning natijalarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekistonda arxiv ishlari va uning tarixi Surxondaryo viloyati misolida tanlab olindi.

**Tadqiqot predmetini** Surxondaryoda arxiv tizimining shakllanishi, arxiv idoralari faoliyatini takomillashtirish borasida olib borilgan ishlar va uning natijalari, mustaqillik yillarida arxiv ishlari dagi o‘zgarishlar jarayoni va uning natijalarini o‘rganish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, xronologik, hududiy-jug‘rofiy, statistik va muammoviy yondashuv kabi usullardan unumli foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Surxondaryo viloyatidagi ilk arxiv idorasasi Sherobod shahrida tashkil etilganligi, arxiv xodimlariga nisbatan ommaviy qatag‘onliklar oqibatida arxiv faoliyati to‘xtab qolganligi, 1934-yilda qayta tashkil etilganda qo‘shni Qashqadaryo okrugi rayonlariga ham xizmat ko‘rsatganligi aniqlangan.

Mamlakat arxiv idoralarining IIXK ixtiyoriga o‘tkazilishi arxiv ishlaringin faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatganligi, Ikkinchiji jahon urushi yillarida arxivlardan xalq xo‘jaligini rivojlantirish va operativ-cheistiklik maqsadlari yo‘lida unumli foydalanilganligi aniqlangan.

Arxiv tizimining Ichki ishlar ministrligi tarkibidan chiqarilishi Surxondaryoda arxiv ishlaringin yaxshilanishiga turtki bo‘lganligi, buning natijasida Surxondaryo viloyat davlat arxivini yirik ilmiy tadqiqot maskaniga aylanganligi asoslangan.

Mustaqillik yillarida arxivlarning yangi binolar va zamonaviy texnikalar bilan ta’minlanishi ish unumi ortishi va hujjatlarni raqamlashtirishning kuchayishiga sabab bo‘lganligi, xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorligi natijasida milliy arxiv tizimi ishining yaxshilanishiga olib kelganligi dalillangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivsi, Surxondaryo viloyat davlat arxivsi hamda tumanlardagi davlat arxivlaridagi 21 ta fond o‘rganilib, O‘zbekistonda arxiv ishlari tarixi bo‘yicha ma’lumot beruvchi ko‘pgina arxiv hujjatlari ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan;

Arxiv ishlari yo‘lga qo‘yilayotgan vaqtidagi qiyinchiliklar va arxiv xodimlariga nisbatan ommaviy qatag‘onliklarga qaramay, soha vakillarining fidokorona mehnati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va mustaqillik g‘oyalarini singdirishga xizmat qiladi;

O‘zbekistonda arxiv ishlari tarixi ilk bor 1925-2025 yillar chegarasida, Surxondaryo misolida o‘rganilib, tadqiqot bo‘yicha xulosa, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Muammoning aniq qo‘yilganligi, unda ishonchli tarixiy manba va arxiv materiallaridan foydalanilganligi, dissertatsiya asosiy natijalarining Respublika va chet el nashrlarida e’lon qilinganligi, olingan

natijalarining amaliyotga joriy etilib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda, xususan, Surxondaryo viloyatida arxiv ishlari sohasida qo'liga kiritilgan natijalar va mavjud muammolar ilk bor ilmiy xulosalanib, soha tarixiga doir ma'lumotlarni boyitishga munosib hissa bo'lib qo'shilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, O'zbekistonda davlat arxivlari tizimi bilan bog'liq tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash, oly va o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun ilmiy asoslangan qo'llanmalar, monografiyalar yaratish, shuningdek, ilmiy-amaliy loyihalarni bajarilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda arxiv ishlari va uning tarixi Surxondaryo viloyati misoli bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishi asosida:

Surxondaryo viloyatidagi ilk arxiv idorasi Sherobod shahrida tashkil etilganligi, arxiv xodimlariga nisbatan ommaviy qataq'onliklar oqibatida arxiv faoliyati to'xtab qolganligi, 1934-yilda qayta tashkil etilganda qo'shni Qashqadaryo okrugi rayonlariga ham xizmat ko'rsatganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida namoyish etilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanildi (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2022-yil 16-fevraldaggi 02-31-2087-sonli ma'lumotnomasi). Bu esa, teletomoshabinlarga Surxondaryoda arxivlarning shakllanishi bilan bog'liq tushunchalarning hosil bo'lishiga xizmat qilgan.

Mamlakat arxiv idoralarining IIXK ixtiyoriga o'tkazilishi arxiv ishlarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi, ikkinchi jahon urushi yillarida arxivlardan xalq xo'jaligini rivojlantirish va operativ-cheistiklik maqsadlari yo'lida unumli foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida namoyish etilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanildi (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2022-yil 16-fevraldaggi 02-31-2087-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar, teletomoshabinlarda arxivlarning xalq xo'jaligidagi o'rni haqidagi tasavvurlari kengayishiga xizmat qilgan.

Arxiv tizimining Ichki ishlar ministrligi tarkibidan chiqarilishi Surxondaryoda arxiv ishlarining yaxshilanishiga turtki bo'lganligi, buning natijasida Surxondaryo viloyat davlat arxivi yirik ilmiy tadqiqot maskaniga aylanganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan Surxondaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasining tadbirlarida foydalanilgan (Surxondaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2023-yil 10-fevraldaggi 01-5/27-son ma'lumotnomasi). Natijalar arxiv hujjatlarini saqlash va ulardan foydalanishga doir ma'lumotlarni yoritib berishga xizmat qilgan.

Mustaqillik yillarida arxivlarning yangi binolar va zamonaviy texnikalar bilan ta'minlanishi ish unumi ortishi va hujjatlarni raqamlashtirishning kuchayishiga sabab bo'lganligi, xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorligi natijasida milliy arxiv tizimi ishining yaxshilanishiga olib kelganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan "O'zarxiv" agentligining ma'naviy-ma'rifiy ishlarida foydalanilgan ("O'zarxiv" agentligining 2023-yil 14-fevraldaggi 01-26-06/187-son ma'lumotnomasi). Bu esa, mustaqillik yillarida arxiv sohasining texnik jihozlanishi ortganligi bo'yicha ma'lumotlarni ochib berishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy maqolalar e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyasini asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 maqola, chet el mamlakatlari ilmiy jurnallarida 3 ta maqola, xalqaro va Respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda nashr etilgan maqolalar soni 10 tani tashkil etadi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, 3 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa, manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 132 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot uchun tanlangan mavzuning dolzarbliji, maqsad va vazifalari, ishning davriy chegaralari, muammoning o'rganilish darajasi, manbaviy asoslari, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan. Shuningdek, dissertatsiyaning nazariy-uslubiy asoslari, amaliy ahamiyati, ilmiy natijalar va tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning “**Surxondaryoda arxiv muassasalarining tashkil etilishi**” deb nomlanuvchi birinchi bobida 1920-1940 yillarda Surxondaryoda arxiv tizimining shakllantirilishi, davlat arxivlari ishining ahvoli va natijalari yoritiladi.

Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida xo'jalik ishlarini yuritishning takomillashuvi bilan bir qatorda, ijtimoiy munosabatlar ham rivojlana borgan. Bunday munosabatlarning yangi pog'onaga ko'tarilishi esa davlatchilik asoslarining yuzaga kelishiga turki bergen. Tabiiyki, bu kabi o'ziga xos jarayonlar avval yozuvning paydo bo'lishi, so'ngra davlatni boshqarishda turli qonun hamda hujjatlar tayyorlashning ijtimoiy zaruratini keltirib chiqargan. Bularning barchasi arxivning shakllanishida muhim omil vazifasini o'tagan<sup>22</sup>.

Shu o'rinda “arxiv” tushunchasining Turkiston o'lkasiga, xususan, Surxondaryo viloyatiga kirib kelish bilan bog'liq masalalarga to'xtalish o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. 1867-yilda Rossiya imperiyasi tarkibida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, tizimga oid hujjatlar gubernator kanselyariyasida to'plana boshladi. Shu maqsadda maxsus (arxivaris-ekzekutor) lavozimi joriy etildi<sup>23</sup>.

Eslatib o'tish zarurki, 1918-1919 yillarda Turkistonning markaziy shaharlaridagina arxivlar tashkil etilgan, Surxondaryoda esa bu ishga bir necha yillardan keyin kirishilgan edi. Bunga, eng avvalo, 1918-1920-yillarda Surxondaryoning Buxoro amirligi tarkibiga kirganligi, ikkinchidan, o'lkada sovet rejimiga qarshi uzoq muddat kurash olib borilganligi sabab bo'lgan edi. Buxoroda sovetlar hokimiyati uzil-kesil o'rnatilgach, Surxondaryoda arxiv tizimini qurishga kirishildi.

<sup>22</sup> Сагдуллаев А., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. –Тошкент: Академия, 2000. –Б. 242.

<sup>23</sup> Алимов И.А., Мирзабаев А.А. Справочник по архивному делу в Узбекистане (1918-1968 г.г.). – Ташкент: Узгипромзэм, 1970. –С. 75.

1925-yil 29-yanvarda Surxondaryo oblasti tuzilgach, uning tarkibiga Boysun, Sariosiyo, Sherobod uyezdлari kiritildi. Oblast markazi Sherobod shahri belgilandi<sup>24</sup>. Yangi tashkil etilgan oblastda ko‘pgina tashkilotlar va muassasalar paydo bo‘lib, ularning hujjatlarini yig‘ish zaruriyati yuzaga keldi. Shu maqsadda, 1926-yil 5-aprelda Surxondaryo oblast ijroiya qo‘mitasining yig‘ilishida “Arxiv byurosini tashkil etish to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Unga mudir va texnik xodim shtatlari ajratildi<sup>25</sup>.

1927-yil yanvarida Surxondaryo oblasti okrugga aylantirilib, Buxoro oblasti tarkibiga kiritildi. Surxondaryo okrugi tashkil topgan vaqtida uning ma’muriy markazi Sherobod shahri etib belgilandi<sup>26</sup>. Surxondaryo okrugining arxiv idorasi 1927-yil 8-mart kuni Sherobod shahrida ish boshladi va Okrug arxiv byurosi (qisqartmasi: Okrarxivbyuro) deb ataldi<sup>27</sup>. Biroq Sherobodning ma’muriy markaz bo‘lish uchun imkoniyati yetarli emas edi. Shu bois O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 1927-yil 30-iyundagi 69-sonli qaroriga asosan Surxondaryo okrugi markazi Sheroboddan Termizga ko‘chirildi<sup>28</sup>.

1920-1930 yillarda arxiv xodimlariga qarshi olib borilgan qatag‘on siyosati SSSRda arxiv ishlarining orqaga ketishiga turtki berdi. Xususan, 1929-yil 5-noyabrdada VKP(b) MK Siyosiy byurosi boshlab bergan yirik siyosiy jarayon – “Fanlar akademiyasi ishi” natijasida to‘rt nafar akademik olim — atoqli arxivshunos-tarixchi S.F.Platonov, Ye.V.Tarle, N.P.Lixachev, M.K.Lyubavskiy, shuningdek, SSSR Fanlar akademiyasining to‘qqiz nafar muxbir a’zosi soxta ayblovlar bilan qamoqqa olindilar. 1930-yilga kelib qamalganlarning soni 150 kishiga yetdi. Ularning ko‘pchiligi uzoq muddatli qamoq yoki surgun jazosiga hukm qilindilar. Bir qismi otib tashlandi. Platonovning o‘zi surgun qilindi<sup>29</sup>.

Bo‘lib o‘tgan voqealardan keyin uzoq yillar davomida juda ko‘plab ilmiy xodimlar “platonovchilik”da ayblanishdan qo‘rqib, arxivlarda ishlashni istamadilar. Oqibat shu bo‘ldiki, hukumat darhol mamlakat bo‘ylab faoliyat yuritayotgan arxivlar sonini qisqartirishga qaror qildi.

Surxondaryo okrug arxiv byurosini tugatish jarayoni 1930-yil 15-sentyabridan 26-noyabrga qadar davom etdi<sup>30</sup>. Shu tariqa, Surxondaryo okrug arxiv byurosi o‘z faoliyatini tugatdi. Biroq, mavjud vaziyat okrugdagi hujjatli materiallarni saqlash va bu ishlarni muvoqifqlashtirishni talab qilar edi. Buni inobatga olgan O‘zSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi kotibiyatining 1934-yil 19-noyabrdada qabul qilgan 16/86-sonli qarori 6-bandiga asosan O‘zSSR Markaziy arxiv boshqarmasiga Termiz bo‘limini tashkil etishga ruxsat etildi. Ushbu arxiv Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Sherobod va Termiz rayonlariga xizmat qilishi kerak edi. Amalda Qashqadaryo va Surxondaryo okruglaridagi Behbudiy (Qarshi), Kasbi, Dehqonobod, Koson, G‘uzor, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog‘, Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Termiz, Sherobod, Kultepa (Sho‘rchi) rayonlarida joylashgan tashkilot va

<sup>24</sup> Материалы по районированию Средней Азии. Книга 1. Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 1. Бухара. –Ташкент, 1926. –С. 103, 122. Таблица №4.

<sup>25</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 334-fond, 1-ro‘yxat, 362-ish, 1-varaq.

<sup>26</sup> Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск II. Книга IX. Округ Сурхандарья. –Самарканд, 1926. – С. 3.

<sup>27</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 142-fond, 1-ro‘yxat, 7-ish, 3-varaq.

<sup>28</sup> O‘zMA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 3806-ish, 280-varaq.

<sup>29</sup> «Совершенно секретно»: Лубянка — Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.): Сб. док. в 10 т. Том 9. 1931 г. Отв. ред. А.Н. Сахаров, В.С. Христофоров. — Москва: ИРИ РАН, 2013. —С. 458-460.

<sup>30</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 142-fond, 1-ro‘yxat, 13-ish, 17-varaq.

muassasalarga xizmat qilishi yo‘lga qo‘yildi<sup>31</sup>. Bundan keyin okrug arxiv tarixida yangi bosqich boshlandi.

1938-yil 16-aprelda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining qarori bilan Markaziy arxiv boshqarmasi SSSR IIXKga o‘tkazildi va o‘sha yilning sentyabr oyida u SSSR IIXK Bosh arxiv boshqarmasiga (BAB) aylantirildi, unga SSSR davlat arxiv fondini boshqarish ishonib topshirildi<sup>32</sup>. Arxivlarning IIXK ixtiyoriga berilishi sovet davlati tomonidan o‘tkazilgan repressiv siyosat bilan bog‘liq edi. Zero 1920-1930 yillardagi ommaviy qatag‘onliklar oqibatida ko‘pgina kishilar qamoqqa olingan yoki surgun qilingan edi. Ularni jazolash bilan bog‘liq ishlar arxiv fondlarida saqlanar edi. Bu ma’lumotlarni sir saqlash va tashqariga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘sha davrning jazo organi bo‘lmish IIXK qo‘liga topshirildi. Arxivlarning ilmiy muammolarni o‘rganishdan uzoq bo‘lgan idoraviy tizimga kiritilishi ilmiy tadqiqotlarning qisqarishiga olib keldi. Arxivlar tarixiy fanlardan ajratildi va eng xavflisi, davlat va idoraviy arxivlar o‘rtasida to‘siq paydo bo‘ldi<sup>33</sup>.

Surxondaryoda arxiv ishlarining yangi bosqichga ko‘tarilishi SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 6-martdagи farmoniga asosan Surxondaryo oblasti tashkil etilgandan so‘ng boshlandi. Chunki ushbu qaror asosida Surxondaryo okrugi Buxoro tarkibidan ajralib chiqib, alohida oblastga aylantirilgan, shu munosabat bilan arxiv nomi ham o‘zgartirilgan edi. Bundan keyin u O‘zSSR IIXKB (Ichki ishlar xalq komissarligi Boshqarmasi) Surxondaryo oblast davlat arxivni (ya’ni, ruscha: Сурхандарьинский областной государственный архив УНКВД УзССР) deb ataladigan bo‘ldi<sup>34</sup>.

Arxiv sohasida o‘zgarish va yangilanish jarayonlari ketayotgan bir paytda, mamlakat to‘satdan fashist bosqinchilarining hujumiga duch keldi. Aytish kerakki, arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar fashistlarning nishoniga aylangan edi. Arxiv hujjatlarini egallash orqali dushman davlat faollari, qizil askar va ofitserlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni qo‘lga kiritishi mumkin edi. Bu esa, davlatning iqtisodiy va harbiy qudratini ancha kuchsizlantirar edi. Arxivlarni saqlab qolish maqsadida ularni urush harakatlaridan uzoqroq joylarga ko‘chirish zarur edi. Shundan kelib chiqib, 1941-yil 5-iyulda SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP (b) MQ birgalikda I.V.Stalin imzosi bilan “O‘ta maxfiy” belgisi ostida “Arxivlarni evakuatsiya qilish to‘g‘risida”gi qaror chiqardi. Unga asosan SSSR XKS, Mudofaa Qo‘mitasi, VKP(b) MQ, VLKSM MQ, Partiya xalq nazorati, Komintern Ijroiya qo‘mitasi, Marks-Engels, Lenin instituti (IMEL), shuningdek, Ichki ishlar xalq komissarligi arxivlarini Boshqirdistondagi Ufa shahriga olib ketish belgilandi. IIXK idoralari Moskva va Leningrad markaziy davlat arxiv fondlarida saqlanuvchi hujjatlarni Chkalov va Saratov shaharlariga ko‘chirishlari kerak edi<sup>35</sup>.

<sup>31</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 332-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 18, 24-varaqlar.

<sup>32</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 334-fond, 1-ro‘yxat, 5-ish, 11-varaq.

<sup>33</sup> Белов Г. А. Об основных теоретических и организационных проблемах советского архивоведения на современном этапе. В сб.: Труды научной конференции по вопросам архивного дела в СССР. Том 1. –Москва, 1965. –С. 9.

<sup>34</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 519-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 7-varaq.

<sup>35</sup> Копылова О.Н. Совнарком – Совмин СССР и архивы: постановления высшего органа исполнительной власти СССР в области архивного дела в годы Великой Отечественной войны 1941–1945 гг. и в послевоенный период // История и архивы, №3, 2019. –С. 87.

Garchi Surxondaryo oblastiga front hududlaridan hujjatlar keltirilmagan bo‘lsada, mavjud arxivlarni saqlash soha xodimlariga juda katta mas’uliyat yuklar edi. Yuzaga kelgan vaziyatda Surxondaryo oblast ijroiya komiteti 1941-yil 10-sentyabrdan yig‘ilish o‘tkazib, ushbu masalani chuqur tahlil qildi. Shu yig‘ilishda qabul qilingan qarorga asosan Termiz shahrida o‘rnashgan Surxondaryo oblast davlat arxivini qayta tashkil etildi<sup>36</sup>. 1942-yilda oblast davlat arxivini bilan bir qatorda Ichki Ishlar Xalq Komissarligining Surxondaryo oblast bo‘limi arxivini ham tashkil topdi. Ushbu bo‘limda boshliq va inspektor faoliyat yuritgan<sup>37</sup>.

1943-yil 18-fevralda O‘zSSR XKSning 145-sonli qarori bilan IIXKning rayon bo‘limlarida rayon arxivini mudiri lavozimi joriy etildi, uning oylik ish haqi 300 so‘mdan iborat qilib belgilandi<sup>38</sup>.

Ikkinci jahon urushi yillarda arxiv xodimlari qanchalik qiyin bo‘lmashin, og‘ir sharoitlarda ishlab, davlat hujjatlarini yig‘ish va saqlashda fidoyilik ko‘rsatdilar. 1941–1942-yillarda O‘zbekiston davlat arxivlariga 0,5 millionta, 1944–1945-yillarda esa 48 ming saqlov birligiga teng hujjatlar qabul qilindi<sup>39</sup>. Hujjatlar qabul qilishning qisqarishi ko‘pgina arxiv xodimlarining frontga ketishi, yoki ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi hamda oylik ish haqining qisqarishi bilan izohlash mumkin. Bunday vaziyatda arxivlar faoliyatini yuritishning o‘zi bo‘lmashin edi. Shu sabab, arxiv tizimidagi kadrlar yetishmovchiligi butun urush yillarda sezilib turdi va ish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Urushdan keyingi yillarda butun mamlakat bo‘ylab xalq xo‘jaligi sohalarini, ayniqsa, qishloq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirish ishlari jadallik bilan olib borilayotgandi. Ana shunday jarayonlar ketayotgan bir paytda, sovet hukumati tomonidan arxiv xodimlariga mavjud hujjatli materiallar asosida qishloq xo‘jalik xodimlariga yordam berish vazifasi yuklatildi. Ana shu vazifani bajarish maqsadida 1948-yili O‘zSSR arxiv bo‘limi tomonidan “O‘zbekistonda paxtachilik taraqqiyoti (hujjatli materiallar bayoni)” nomli 12-betlik ma’lumotnomasi tayyorlandi<sup>40</sup>. Unda O‘zbekiston, shu jumladan, O‘rta Osiyo Respublikalarida 1920-1934 yillardagi paxtachilik bilan bog‘liq hujjatlar, jumladan, irrigatsiya va gidrotexnika, qishloq xo‘jalik zararkunandalari va g‘o‘za kasalliklariga qarshi kurash, g‘o‘zani o‘g‘itlash to‘g‘risidagi materiallar, seleksiya, paxta navlari va paxta tolasi bo‘yicha izlanishlar, paxta maydonlari, lalmi yerlarda paxta ekish bilan bog‘liq materiallar, paxtachilik bo‘yicha qo‘lyozmalar va risolalar ro‘yxati keltirib o‘tildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Davlat arxivlari sohasida amalga oshirilgan tadbirlar va uning natijalari”** deb ataladi. Unda 1950-1980 yillarda Surxondaryo oblastida arxiv idoralari faoliyatini takomillashtirish borasida olib borilgan ishlari va uning natijalari tahlil qilinadi.

1950-yillarda butun mamlakat bo‘ylab davlat arxivlari faoliyatini yaxshilash, ish yuritishni takomillashtirish, mavjud fondlardagi hujjatlarni tartibga keltirish, raqamlash, qayta tiklash, saralash, jamlash, ekspertizadan o‘tkazish, saqlash sharoitlarini talab

<sup>36</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 334-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 5-varaq.

<sup>37</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 45-fond, 1-ro‘yxat, 500-ish, 96-varaq.

<sup>38</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 334-fond, 1-ro‘yxat, 6-ish, 7-varaq.

<sup>39</sup> Холбоев М. Архивная деятельность в Узбекистане в годы Второй Мировой Войны (на примере Наманганской области) // Общество и инновации, Special Issue, 2022, № 2. –С. 251.

<sup>40</sup> Развитие хлопководства в Узбекистане (обзор документальных материалов). –Ташкент, 1948.

darajasiga ko‘tarish borasida ko‘plab ishlar qilindi. Bundan tashqari, aholi bilan ishslashning yangi usullarini tatbiq etish, idoralararo yozishmalar, tushayotgan arizalar asosida ma’lumotnomalar tayyorlash, tarjimalar qilish ishlari amalga oshirildi. Bunday keng ko‘lamli ishlarni esa oz sonli arxivchilar bajardilar.

Arxiv hujjatlari nafaqat davlat uchun, balki ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega qimmatli manba hisoblanadi. Shuning uchun 1954-yilning 13-yanvarida O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 55-sonli “Arxiv ishlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bu qaror o‘z davrida arxiv sohasi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki ushbu qarorga asosan, 1954-yil ichida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi va Ichki ishlar ministrligiga 1916-yili O‘zbekistonda sodir bo‘lgan qo‘zg‘olon to‘g‘risidagi hujjatlar to‘plamini nashrga tayyorlash, N.A.Seversov va A.N.Fedchenko haqida “Русские учёные – исследователи Средней Азии” nomli hujjatli asarni tugallash hamda “Рабочий контроль и национализация промышленности в Туркестане (1917-1920 гг)” nomli asarni nashrdan chiqarish, 1954-yildan boshlab 20 bosma toboqlik “Архивный вестник Узбекистана” nomli jurnalni chop etish vazifasi yuklangan edi<sup>41</sup>.

1960-yilda mamlakat arxiv idoralari tarixida katta tarixiy voqeа sodir bo‘ldi. 1960-yil 13-yanvarda SSSR Ministrlar Sovetining 48-sonli qarori va SSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan SSSR Ichki ishlar ministrligi tugatilib, uning tarkibidagi funksiyalar ittifoqdosh respublikalarga berildi. Shu munosabat bilan SSSR Ichki ishlar ministrligining Bosh arxiv boshqarmasi SSSR Ministrlar Sovetiga o‘tkazildi<sup>42</sup>.

Moskvadagi o‘zgarishlar O‘zbekistonda ham o‘z aksini topdi. O‘zbekiston Ministrlar Sovetining 1961-yil 9-may kungi qarori bilan O‘zbekiston Ichki ishlar ministrligining arxiv boshqarmasi O‘zbekiston Ministrlar Soveti huzuridagi Arxiv boshqarmasi qilib qayta tashkil etildi. Uning oblastlardagi tuzilmalari oblast ijroiya qo‘mitalarining arxiv bo‘limlari sifatida tuzildi<sup>43</sup>.

O‘rganilayotgan davrda O‘zbekistonda ma’muriy-hududiy bo‘linishlarni qayta ko‘rib chiqish masalasi ham kun tartibiga qalqib chiqdi. Natijada 1960-yil 25-yanvarda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining “O‘zbekiston SSR tarkibidagi Qashqadaryo oblastini tugatish to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilinib, Qashqadaryo oblasti tugatildi. Uning Koson rayonidagi Muborak va Qoraqum posyolkalaridan tashqari barcha hududi Surxondaryo oblastiga qo‘sib yuborildi. Muborak va Qoraqum posyolkalari Buxoro oblasti tarkibiga o‘tkazildi<sup>44</sup>.

Ikki oblastning birlashuvi Surxondaryo arxivini tarixida yangi davr bo‘ldi. Lekin nafaqat Surxondaryo, balki Qashqadaryodagi arxiv hujjatlarini saqlash va ulardan ma’lumot yig‘ish hamda ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun ayrim qiyinchiliklar ham yuzaga kela boshladi. Ana shu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida 1960-yil 25-fevralda mehnatkashlar deputatlari Surxondaryo oblast Soveti ijroiya qo‘mitasining 35-sonli qarori asosida Qashqadaryo oblast davlat arxivini Surxondaryo oblast davlat arxivining Qarshi shahridagi filialiga aylantirildi<sup>45</sup>.

<sup>41</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 334-fond, 1-ro‘yxat, 98-ish, 3-5- varaqlar.

<sup>42</sup> Россия XX век. Лубянка. Органы ВЧК-ОГПУ-НКВД-НКГБ-МГБ-МВД-КГБ. 1917-1960. Справочник.

Составление, введение и примечания А.И. Кокурина, Н.В. Петрова— Москва: МФД, 1997. —С. 326-330.

<sup>43</sup> Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи, Ўзбекистоннинг асосий архивлари. Ўқув кўлланма. — Тошкент, 2010. —Б. 30.

<sup>44</sup> Газета “Правда Востока”, 26 января 1960 года. №21 (10996).

<sup>45</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 334-fond, 1-ro‘yxat, 188-ish, 1-varaq.

Shundan so‘ng rayonlararo arxivlar ishini tashkillashtirishga kirishildi. 1962-yil 3-iyulda Mehnatkashlar deputatlari Surxondaryo oblast Sovetining 461-r-sonli farmoyishiga asosan Beshkent, Denov, Shahrisabz va Sherobod rayonlararo davlat arxivlari tashkil qilinib, shtat birliklari tasdiqlandi. Ularning quyidagi rayonlarga xizmat ko‘rsatishi belgilab qo‘yildi:

Beshkent rayonlararo davlat arxivi – Beshkent, Dehqonobod, G‘uzor, Koson va Qarshi rayonlari;

Denov rayonlararo davlat arxivi – Denov, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo va Sho‘rchi rayonlari;

Shahrisabz rayonlararo davlat arxivi – Qamashi, Kitob, Chiroqchi, Yakkabog‘ va Shahrisabz rayonlari;

Sherobod rayonlararo davlat arxivi – Angor, Boysun, Sherobod va Termiz rayonlari<sup>46</sup>.

Qarshi cho‘lida yangi yerlarni o‘zlashtirish, gidrotexnik inshootlar majmuasi va yangi sovxozlarni qurish, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqaruvchi resurslaridan to‘liq foydalanish hamda ushbu jarayonni bevosita boshqarish uchun Qashqadaryoni oblast sifatida qayta tiklash lozimligini ko‘rsatdi. Shu maqsadda, 1964-yil 7-fevralda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan markazi Qarshi shahri bo‘lgan Qashqadaryo oblasti tashkil etildi<sup>47</sup>. Shundan keyin Qashqadaryoda arxiv ishlari Surxondaryodan alohida holda rivojlana boshladи.

1970-yilda Surxondaryo oblastida yangi rayonlarning tashkil etilishi, tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar ko‘payishi sharoitida oblast arxivi filiallari ularni to‘la qamrab ololmay qoldi. Qolaversa, aholi uchun uyidan uzoq hududga borib ma’lumotnomal olish ham qiyinchiliklar tug‘dirardi. Shuni inobatga olib, 1970-yil 3-mart kuni Boysun rayon mehnatkashlar deputatlari Sovetining ijroiya qo‘mitasi yig‘ilishining 6-sonli bayonnomasi 83-bandiga asosan rayon arxiv bo‘limi tashkil etildi<sup>48</sup>. Boysun rayon ijroqo‘mining 1970-yil 1-apreli dagi 5-sonli buyrug‘i bilan Galyamov Vali arxiv mudiri, Ra’no Ismoilova ish yurituvchi etib tayinlandi<sup>49</sup>.

1973-yil 16-fevralida O‘zSSR Ministrlar Sovetining “Respublikada arxiv ishlaring holati va uni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 55-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, O‘zbekiston SSR kinofotofonohujjatlari markaziy davlat arxivi (KFFH MDA)ni qayta tashkil etish, Toshkent oblast davlat arxivi negizida Toshkent davlat arxivini tuzish belgilandi. Shuningdek, xodimlarga doir hujjatlarni saqlash va fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy so‘rovlari mahalliy ijroiya qo‘mitalarida bajarish uchun xo‘jalik hisobidagi idoralararo shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari tarmog‘i tashkil etildi<sup>50</sup>.

1971-1975 yillar oralig‘ida davlat arxivlari xodimlari juda katta miqyosdagи ishlarni amalga oshirdilar. Bir necha yil ichida idoraviy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarni saralash, tartibga keltirish, ishlov berish kabi ishlar tugallandi va davlat arxivlari ixtiyoriga topshirildi. Butun SSSR bo‘yicha 15,6 millionta ish yuritish

<sup>46</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 482-ish, 18-19-varaqlar.

<sup>47</sup> Газета “Правда Востока”, 8 февраля 1964 года. №33 (12218). –С. 1.

<sup>48</sup> Boysun tuman davlat arxivi, 1-fond, 1-ro‘yxat, 392-ish, 124, 143-varaqlar.

<sup>49</sup> Boysun tuman davlat arxivi, 1-fond, 2-ro‘yxat, 9-ish, 44-varaq.

<sup>50</sup> Исакова М.С., Закирова Д.Т., Абдурахимова Ш.А. Ўзбекистон архив тизими-100 ёшда. –Тошкент: Наврӯз, 2019. –В. 25.

hujjatlari, jumladan, 165 ming shaxsiy fondlar davlat arxivlariga qabul qilib olindi. Bundan tashqari, 92 ming saqlov birligidagi kinohujjatlar va 1097 ming saqlov birligidagi fotohujjatlar topshirildi. O‘zbekiston bo‘yicha, arxivlarga barchasi bo‘lib 558 mingta umum ish yurituv hujjati (rejaning 107%), 10,5 ming ilmiy-texnik hujjat (rejaning 105%), 1,4 ming saqlov birligiga ega kinohujjat (rejaning 114 %), 65,1 ming saqlov birligidan iborat fotohujjat (rejaning 141%) qabul qilindi. 341,7 mingta ish ekspertizadan o‘tkazildi. Bu boradagi reja 138 % ga bajarildi<sup>51</sup>.

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1979-yil 4-dekabrdagi Farmoni bilan Surxondaryo oblasti tarkibida yangi Angor rayoni tashkil etildi. Termiz rayonining ma’muriy markazi Angordan Uchqizilga ko‘chirildi<sup>52</sup>. Yangi rayon tashkil etilar ekan, unga davlat arxivining filialini tashkil etish lozim edi. Natijada 1980-yil 21-aprelda Surxondaryo oblast xalq deputatlari ijroiya qo‘mitasi Arxiv bo‘limining 3-son buyrug‘iga asosan Surxondaryo oblast davlat arxivining Angor filiali tashkil etildi<sup>53</sup>. Arxiv filiali Angor va Termiz rayonlariga xizmat ko‘rsatishi belgilandi.

O‘rganilayotgan davrda arxiv xodimlari mavjud tuzum sharoitida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ham faol qatnashdilar. Xususan, 1980-yil 23-iyunda KPSS MK ning plenumi bo‘lib o‘tdi. Plenumda KPSS MK Bosh kotibi, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi L.I.Breznev ma’ruzasi tinglandi va KPSS XXVII syezdi 1981-yil 23-fevralda chaqirilishi belgilandi<sup>54</sup>. Shundan keyin butun Ittifoq bo‘yicha partiyaning XXVII syezdiga munosib tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida kuchli targ‘ibot boshlandi. Jumladan, Surxondaryo oblast davlat arxivni yillik va besh yillik rejalarini 1980-yil 20-dekabrga qadar tugatishi, birinchi ro‘yxatda turgan arxiv hujjatlarini to‘liq hisobga olish, Angor rayonida yangi tashkil etilgan arxivda hisobga olish ishlarini tugallash bo‘yicha sotsialistik majburiyatni zimmalariga oldilar<sup>55</sup>.

1986-1990 yillarni tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda arxiv sohasi rivoji uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. Mazkur yillarda arxivlar uchun 63299 so‘mlik 79 turdag‘i jihoz sotib olindi. Shu muddat ichida 635603 ta boshqaruvga aloqador hujjatlar qabul qilindi. Qoraqalpog‘iston ASSR Markaziy davlat arxivining 11 ta filiali yiriklashtirilib 5 taga tushirildi. 1988-1989 yillardagi ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar Navoiy oblast davlat arxivni va uning Xatirchidagi filiali tugatildi. 1989-yildan O‘zSSR Bosh arxivining “Информационный бюллетень” nomli nashri chiqarila boshlandi. 1990-yilda Xorazmda yangi davlat arxivni binosi qurilib foydalanishga topshirildi. Andijon, Namangan, Samarcand oblastlari davlat arxivlari, Namangan, Xorazm, Qashqdaryo davlat arxivlarining to‘rtta filiali uchun bino loyihalari ishlab chiqildi. 1991-yil 1-yanvar holatiga asosan Respublika bo‘yicha 20653 ta fond, ularda saqlanayotgan hujjatlarning 5047425 saqlov birligi, kinohujjatlar 16839 saqlov birligi, fotohujjatlar soni 334712 saqlov birligi, fonohujjatlar 12398 saqlov birligini tashkil qildi<sup>56</sup>.

1991-yil 19-21 avgustda Moskvada bo‘lib o‘tgan davlat to‘ntarishiga urinish Sovet davlatining keyingi taqdirini hal qildi. 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston

<sup>51</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 334-fond, 1-ro‘yxat, 367-ish, 28-34- varaqlar.

<sup>52</sup> Газета “Правда Востока”, от 5 декабря 1979 года. №279 (19158).

<sup>53</sup> Yusupov U.M., Aliyev A.O. O‘zbekiston arxivlari. –Toshkent: Tasvir, 2021. –B. 347.

<sup>54</sup> Материалы пленума Центрального Комитета КПСС. 23 июня 1980 года. — Москва: Политиздат, 1980. — С. 3-4.

<sup>55</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 334- fond, 1-ro‘yxat, 443-ish, 1-2-varaqlar.

<sup>56</sup> Surxondaryo viloyat davlat arxivni, 334- fond, 1-ro‘yxat, 613-ish, 36-38, 124-varaqlar.

Respublikasi o‘zining davlat mustaqilligini e’lon qildi. 1991-yil 5-sentyabrda SSSR Prezidenti M.S.Gorbachyov “O‘tish davridagi SSSR davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari to‘g‘risida” gi 2392—I–sonli SSSR Qonunini imzoladi. Unga asosan 1991-yil 14-noyabrdagi SSSR Davlat Sovetining “SSSR ministrlilari va boshqa markaziy davlat boshqaruvi organlarini tugatish to‘g‘risida”gi GS-13-sonli qarorni qabul qildi. Ushbu qaror bilan Ittifoqning barcha tashkilotlari singari SSSR Ministrler Soveti huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi ham tugatildi<sup>57</sup>. Shu bilan O‘zbekistonda sovet arxivi davri tugadi. Uning o‘rniga yangi, mustaqillik davri boshlandi.

